

“O‘ZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANS VA INNOVATSION JARAYONLAR JURNALI”

20-Mart, 2026-yil

TEXNALOGIYA FANINI O‘QITISHDA DIDAKTIK O‘YINLARNING AHAMIYATI

Saidnazarova Tulganoy Mahmudovna

"University of Economics and pedagogy" NOTM

"Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim" kafedrası PhD, dotsenti

Dilmurodova Gavharoy Dilshodbek qizi

University of Economics and pedagogy

Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 2 - kurs talabasi

Anatatsiya : *Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida texnologiya fanini o‘qitish orqali o‘quvchi yoshlarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda ta‘lim tizimining ahamiyatini xech narsa bilan qiyoslab bo‘lmaydi. Chunki bola o‘yin faoliyatidan o‘qish faoliyatiga o‘tayotgan davrda qiyinchiliklarga duch keladi. Shuning uchun bolalarda maktab ta‘limida darslarni tashkil etishda didaktik o‘yinlardan foydalanishning o‘rni kattadir.*

kalit so‘zlar : *barkamol shaxs, ta‘lim tizimi, o‘yin faoliyati, davr, maktab ta‘limi, didaktik o‘yin. "Texnologiya - bu zo‘r qachonki u insonlarni birlashtirsa"*

(Matt Mullenveg)

Аннотация: *Важность системы образования в воспитании всесторонне развитых личностей посредством использования образовательных технологий в обучении детей младшего школьного возраста неоценима. Это связано с тем, что ребенок сталкивается с трудностями при переходе от игры к обучению. Поэтому использование дидактических игр в организации уроков в школьном образовании играет значительную роль.*

Ключевые Слова: *гармоничная личность, система образования, игровая деятельность, период, школьное образование, дидактическая игра.*

«ТЕХНОЛОГИИ ВЕЛИКОЛЕПНЫ, КОГДА ОНИ ОБЪЕДИНЯЮТ ЛЮДЕЙ».

Abstract: *The importance of the education system in educating young people as well-rounded individuals through teaching technology to primary school students is incomparable. Because a child faces difficulties during the transition from play to learning. Therefore, the use of didactic games in organizing lessons in school education for children plays a significant role.*

Keywords: *harmonious personality, educational system, game activity, period, school education, didactic game. "Technology is great when it unites people"*

KIRISH

Texnologiya fanini o‘qitish pedagogika fanining bir tarmog‘i sifatida o‘z obyektivlari, vazifalari va tadqiqot metodlariga egadir. Texnologiya ta‘limi jarayoni:

- o‘quv materialining mazmuni
- o‘qitish metodlari
- o‘quvchilarning bilish faoliyati
- o‘qitish natijalari
- pedagogik texnologiyalardan foydalanish va o‘rganish ob‘yektivi hisoblanadi.

Texnologiya grekcha " techno" - hunar , " logos " - fan ta‘lim degan ma‘nolarni anglatadi. Texnologiya - ilmiy bilimlarni inson hayotida amaliy maqsadlar yo‘lida o‘zgartirish maqsadida ishlatiladi. Hozirgi kunda ta‘lim jarayonlarida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalari o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e‘tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, ilgari o‘quvchilarni tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar esa ularni egallayotgan bilimlarni o‘zlari qidirib topishlariga mustaqil o‘rganib taxlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi. Hozirgi davrda zamonaviy didaktika ko‘rgazmali vositalarni qo‘llashning eng yuqori ta‘limiy, tarbiyaviy hamda shaxs sifatlarini rivojlantiruvchi variantlarini qo‘llashni talab qilmoqda. U pedagoglarni ko‘ragzmali vositalarni qo‘llash barobarida ta‘lim oluvchilarning abstrakt tafakkurini ham rivojlantirishga yo‘naltiradi. Ta‘lim jarayoni qonuniyatlarini va uni xususiyatlarini o‘rganuvchi, tadbir etuvchi pedagogikaning sohasi didaktikadir. Didaktika ta‘lim nazariyasi atamasi sifatida dastlab XVII asr boshlarida paydo bo‘ldi. Didaktika atamasini pedagogikda birinchilardan bo‘lib nemis pedagogi Wolfgang Ratka " o‘qitish san‘ati " ma‘nosida qo‘llangan. U o‘zining ma‘ruza kursini " didaktika" o‘qitish san‘ati deb nomlagan. XVII asr o‘rtalarida E. Bodino " Didaktika" nomli kitobini nashr qildirgan. Chek pedagogi Ya. A. Korenskiy didaktikani ilmiy bilimlar tizimi sifatida ifodalab o‘zining " BUYUK DIDAKTIKA " asarida didaktika atamasi keng. Hammani hamma narsaga universal san‘at ma‘nosida ishlatgan. Ya. A. Komuskiy didaktika orqali keng ma‘noda pedagogikani tasvirlagan. Bir so‘z bilan aytadigan bo‘lsak " didaktika " bu ta‘lim nazariyasi deyiladi. Ya. A. Komenskiy o‘yinni bola faoliyatining asosiy shakli ekanligini ta‘kidlab aynan o‘yin bolaning tabiati va qiziqishlariga mos kelishini aytgan edi. Olim o‘yin bolaning aqliy qobiliyatlarini har tomonlama, o‘stirish, uning atrof - tevarak haqidagi tasavvurlarini kengaytirishi, nuqtini o‘stirishini ta‘kidlaydi. Shuningdek tengdoshlari bilan birgalikdagi o‘yin uni tengdoshlariga yaqinlashtiradi. Bolalar tarbiyasida didaktik o‘yinlardan ikki yo‘nalishida foydalaniladi :

1. Barkamol insonni shakllantirish
2. Tor didaktik maqsadlarda

Didaktika o‘yinlarini uch turga ajratish mumkin : og‘zaki so‘zlar yordamida, o‘ynaladigan o‘yinlar, o‘yin mashg‘ulotlari ya‘ni mashq (harakatli) o‘yinlar. Didaktik o‘yinlar uchun o‘yin g‘oyasi va o‘yin vazifalari muhim ahamiyatga ega. Didaktika o‘yinning eng muhim elementi uning qoidasi hisoblanadi. Qoidani bajarish jarayonida o‘yin mazmuni

amalga oshadi. Didaktik o‘yinda o‘quvchi qoidalarga rioya qilishga o‘ragadi. Chunki qoidalarga rioya qilish o‘yin muvaffaqiyatini ta‘minlaydi, o‘yinda qatnashish jarayonida ijobiy xulqiy sifatlar tashkilotchilik qobiliyati shakllanadi. Didaktika o‘yinlar texnologiyalari bolalar faoliyatini faollashtirish va tezlashtirishga asoslangan. Ular bolalarning ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Didaktika o‘yinlarning asosi aqliy, jismoniy, psixologik, estetik, badiiy tadbirkorlik mehnat va boshqa ko‘nikmalarni shakllantirishga yordam beradi.

Didaktik o‘yinlarning ahamiyati

Didaktik o‘yinlar o‘quvchilarida qiziqish uyg‘otib ularni dars jarayonida faol qatnashishga undaydi. O‘yin davomida o‘quvchilar mavzuni qiziqarli shaklda o‘zlashtiradilar va o‘z bilimlarini namoyon qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Masalan til o‘rgatishda so‘z topish o‘yini, yoki matematikada savol javob mashqlari qiziqish shga yordam beradi. Bilimlarni mustahkamlashda: o‘yin shaklidagi topshiriqlar orqali O‘quvchilar darsda olgan bilimlarini izohlaydi, takrorlaydi, mustahkamlaydi va amaliyotda qo‘llaydilar. Bunday o‘yinlar bilimlarning mustahkamlanishiga va ular orasidagi bog‘lanishlarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Didaktik o‘yinlarni qo‘llashda dars mavzusiga mos o‘yin tanlash, o‘yin dars mazmuniga mos bo‘lishi va belgilangan maqsadga xizmat qilishi lozim. Masalan matematikaga oid mavzuda matematik masalalarni yechishga mo‘ljallangan o‘yin tanlash samaradorligini oshiradi. Oddiy qoidalarni belgilash, o‘yin qoidalari o‘quvchilarga tushunarli vasodda bo‘lishi kerak. Murakkab qoidalar o‘quvchilarni qiziqishini pasaytirishi va vaqtini bexuda sarflashga olib kelishi mumkin. O‘quvchilarning ehtiyojlarini hisobga olish har bir o‘quvchi individual xususiyatga ega. Didaktik o‘yinlarni tanlash va o‘tkazishda o‘quvchilarning yoshiga bilim darajasiga va qiziqishlariga mos keladigan usullarni qo‘llash zarur. Masalan kichik sinf o‘quvchilari uchun ko‘proq vizual va interaktiv elementlarga boy o‘yinlar samarali bo‘lsa, yuqori sinf o‘quvchilari uchun analitik va muammolarini hal qilishga asoslangan o‘yinlar foydalidir.

Didaktik o‘yinlar maqsadiga ko‘ra to‘rt omilni o‘z ichiga oladi

1. O‘yinning vazifasi
2. O‘yinning harakati
3. O‘yinning qoidasi
4. O‘yinning yakuni

Har bir didaktik o‘yinni boshlashdan avval o‘quvchilarga o‘yinning qoidasi mazmuni yakuni nimadan iborat ekanini o‘qituvchi tomonidan tushuntiriladi. O‘quvchilar uni tushunib anglab shu asosda harakat qiladilar. Boshlang‘ich ta‘limda didaktik o‘yinlarga ahborotlarni tashuvchi manba sifatida qaraladi.

Ta‘lim vositalarida foydalanishda ko‘rgazmalilik didaktik tamoyili ham muhim o‘rin tutadi. O‘qituvchilar o‘quvchilarga o‘quv materilaini bayon etishda didaktikaning eng muhim peinsiplaridan biri ko‘rsatmalilik tamoyilidan foydalanadilar. Didaktikada ko‘rsatmalilik tamoyili konkret bilan abstraktning birligi to‘g‘risidagi qoida asosida ko‘rib chiqiladi. narsa yoki hodisaning Aslini yoki tasvirini idrok etish inson uchun atrofdagi borliqni biror

“O‘ZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANS VA INNOVATSION JARAYONLAR JURNALI”

20-Mart, 2026-yil

haqiqatni bilishning dastlabki va eng oddiy akt hisoblanadi hamda o‘rganilayotgan narsalar jarayonlar hodisalar to‘g‘risidagi aniq tasavvurlar va abstrak tushunchlar hosil qilish uchun asos vazifasini o‘taydi.

Xulosa qilib aytganda texnologiya darslarida didaktik o‘yinlardan foydalanish ta‘lim sifatini oshirishning eng samarali yo‘lidir. Ushbu metod ananaviy o‘qitish uslubidan ko‘ra bolalarni darsning markazga ya‘ni faol ishtirokchiga aylantiradi. Yoshga mos tanlangan didaktik o‘yinlar zamon talabiga mos tafakkurli mustaqil va Qolaversa barkamol shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Z.D.Rasulova, Sh.H.Qulayeva , A.R.Jo‘rayev - Texnologiya fanini o‘qitish metodikasi - Buxoro - 2022
- 2.Saidnazarova Tulganoy " Texnologiya ta‘limi metodikasi " (Darslik) Bosmaxonaga 2025 yil 22 - noyabrda berilgan.
3. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat - T . 2003, TDPU - 174 bet
4. O‘zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori - T "Sharq" 1998 - B. 31 - 61
- 5.Ahmadaliyev S.Bo‘lajak mehnat ta‘limi o‘qituvchilarini kasbiy pedagogik faoliyatga moslashishning ilmiy metodik asoslari. Ped.fan.nomz. - T 2008
6. Kaldibekova A.S. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti laboratoriya mashg‘ulotlari - T " Fan texnologiya nashriyoti " 2013
7. Mavlonova R, Raxmonqulova N, Vohidova N." Pedagogika nazariyasi va tarixi " Darslik - T . Fan texnologiyalar 2010